

MODDALAR ALMASHINUVI BUZILISHI KASALLIKLARI (SPAZMOFILIYA)

Davronova Charos Luqmonovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assestenti.

Sadiyev Javohir Ulug'bek o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash 1 fakulteti 3 kurs.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11542747>

Annotatsiya. Moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari. Bola organizmida oqsil, yog`, uglevod, mineral tuzlar, vitaminlar almashinuvi buzilishi tufayli bir qator kasalliklar va kasallikka yaqin holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shulardan eng ko'p uchraydiganlari quyidagilar: raxit, spazmofiliya, gipotrofiya, ekssudativ diatez.

Kalit so'zlar: raxit, spazmofiliya, uglevod, oqsil, moddalar almashinuvi.

METABOLIC DISORDERS (SPASMOPHILIA)

Abstract. Metabolic disorders. A number of diseases and conditions close to the disease can occur due to the violation of protein, fat, carbohydrate, mineral salt, and vitamin metabolism in the child's body. The most common of them are: rickets, spasmophilia, hypotrophy, exudative diathesis.

Key words: rickets, spasmophilia, carbohydrate, protein, metabolism.

МЕТАБОЛИЧЕСКИЕ НАРУШЕНИЯ (СПАЗМОФИЛИЯ)

Аннотация. Заболевания с нарушением обмена веществ. Ряд заболеваний и состояний, близких к заболеванию, может возникнуть вследствие нарушения белкового, жирового, углеводного, минерально-солевого и витаминного обмена в организме ребенка. Наиболее распространенными из них являются: рахит, спазмофилия, гипотрофия, экссудативный диатез.

Ключевые слова: рахит, спазмофилия, углеводы, белки, обмен веществ.

Moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari.

Bola organizmida oqsil, yog`, uglevod, mineral tuzlar, vitaminlar almashinuvi buzilishi tufayli bir qator kasalliklar va kasallikka yaqin holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shulardan eng ko'p uchraydiganlari quyidagilar: raxit, spazmofiliya, gipotrofiya, ekssudativ diatez.

Spazmofiliya-(shaytonlash). Bola organizmida kalsiy-fosfor tuzlari almashuvining buzilishi va qonda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida yuzaga keladi.

Sababi.

1. Sun'iy ovqatlantirish.

2. Raxit bilan kasallanishi.

Belgilari. Spazmofiliya yashirin va oshkora turlarda namoyon bo'ladi.

Yashirin turida bola salgina shovqindan uchib tushadi, qotib-qotib yig'laydi va yig'lagan paytda, nafasi qisqa muddatga to'xtashi, lablari ko'karishi mumkin.

Spazmofiliyaning oshkora turida vaqt-vaqti bilan bolada tirishish yuzaga keladi. Tirishish xuruji paytida bola boshini orqaga tashlab, ko'zlari olayadi, rangi ko'karadi, nafas olishi qiyinlashadi, og'zidan ko'pikli so'lak oqadi, qo'l-oyoqlari tarashadek qotadi, hushini yo'qotadi. Tirishish bir necha minut davom etadi, so'ng bolaning hushi joyiga kelib, nafas olishi tiklanadi, tirishish belgilari yo'qoladi.

Kasallik og'ir kechganda tirishish holati nafas a'zolari va yurak muskullariga tarqalishi, bir necha soatgacha davom etishi va bir necha kun davomida tez-tez takrorlanib turishi mumkin.

Tirishish paytida shoshilinch yordam ko'rsatilmasa bolaning tili orqaga tortilib, nafas yo'llariga so'lak tiqilib qolishi, nafas olish qiyinlashuvi tufayli, yoki yurak muskullari tirishishi natijasida bola halok bo'lishi mumkin.

Tibbiy yordam. Spazmofiliyaning yaqqol turi belgilarining yuzaga kelishi favqulotda holat bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni talab etadi.

Tirishish holatida.

1. Bolaning yoqa tugmalari yechilib, boshi baland qilib yotqiziladi, og'zi, burni rezina balloncha yordamida ko'pikdan tozalanadi.

2. Boshi yonbosh qilinib, jag'lari orasiga doka o'ralgan temir qoshiq dastasi qo'yiladi va u bilan tili bosib turiladi.

3. Iloji bo'lsa, magniy sulfatning 25 % li eritmasidan (bolaning har kg vazniga 0,2 ml dan), 0,5 %-1-2 ml novokain qo'shib, dumbaning tashqi yuqori sohasiga muskul orasiga yuboriladi.

4. Xloralgidratning 1-2 % li eritmasidan 10-20 ml rezina ballonchaga olinib, klizma qilinadi.

Tirishish to'xtagandan so'ng, uni yana takrorlanishining oldini olish uchun:

1. Tinchlantiruvchi dorilar: natriy bromidning 1% eritmasi bir choy qoshiq kuniga 2 marta, fenobarbitol (lyu-minal, yoshiga qarab 0,001-0,005-0,01) kuniga 2 mahal uxlatish oldidan peshin va kechda ichirish.

2. Kalsiy xloridning 5 % li eritmasidan 1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal ichiriladi yoki 10 % li eritmasidan 2-3 ml kuniga 1 marta vena tomiriga yuboriladi (5 kun davomida).

3. Bolada raxitning belgilari bo'lsa raxit mavzusida ko'rsatilgan tartibda davolanadi.

REFERENCES

1. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. F.G`. Nazirov. Toshkent-2003.
2. Odam anatomiyasi. E.Qodirov. Toshkent-2003.
3. Anatomiya. A.S.Gusev. Moskva-1970.
4. Hamshiralik ishi asoslari. Q.Inomov. Toshkent-2007.
5. Xirurgiya. A.J.Hamrayev. Toshkent-2002.
6. Xirurgiya va reanimatsiya asoslari. A.J. Hamrayev. Toshkent-2002.
7. Bolalar kasalliklari. A.N.Buraya. Toshkent-1988.